ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

# MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGNING ROLI: TARBIYACHI-PEDAGOG FASILITATOR SIFATIDA

**M.E.Rustamova**
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor
va mutaxassislarini qayta tayyorlash
ularning malakasini oshirish instituti
“Maktabgacha va inklyuziv ta’lim metodikasi”
kafedrasi dosenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23464817

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari faqat yo‘riqchi sifatida emas, balki ta’lim jarayonining fasilitatorlari (yordam beruvchi, yo‘naltiruvchi) sifatida qaraladi.

**Milliy o‘quv dasturida pedagoglarning roli quyidagicha belgilanadi:**

murabbiy – bolalarning qiziquvchanligi va ijodkorligini qo‘llab-quvvatlovchi;

hamkor tadqiqotchi bolalar bilan birgalikda g‘oyalar va kashfiyotlarni o‘rganuvchi;

tyutor (yo‘naltiruvchi) bolalarning muammolarni mustaqil hal etish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rag‘batlantiruvchi;

mediator (vositachi) ota-onalar, manfaatdor tomonlar va mahalliy jamoatchilikni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati jarayoniga jalb etuvchi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining o‘yinga asoslangan ta’lim, inklyuziv ta’lim va bola psixologiyasi bo‘yicha kasbiy rivojlanishi maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagog bolaning har tomonlama rivojlanishi, mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishi va ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashi uchun qulay ta’limiy muhit yaratadi.

**Tarbiyachi-pedagog sifatida:**

bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga oladi;

ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtiradi va tashkil etadi;

bolalarda axloqiy, estetik, jismoniy va aqliy sifatlarni shakllantiradi;

namuna ko‘rsatadi va ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantiradi;

ota-onalar bilan hamkorlik qiladi.

Fasilitator- bolaga tayyor javobni beruvchi emas, balki uni mustaqil izlanish, fikrlash va qaror qabul qilishga yo‘naltiruvchi pedagogdir.

**Fasilitatorpedagog:**

bolani erkin fikr bildirishga undaydi;

savollar orqali uni mustaqil xulosa chiqarishga olib keladi;

har bir bolaning faol ishtirokini ta’minlaydi;

o‘yin va amaliy faoliyat orqali bilim olishga sharoit yaratadi;

bolalar o‘rtasida hamkorlik va muloqotni rivojlantiradi;

xatolarni jazolamay, ularni o‘rganish va tajriba orttirish imkoniyati sifatida qabul qiladi.

**Xulosa:** zamonaviy maktabgacha ta’lim pedagogi faqat bilim beruvchi va tarbiyalovchi emas, balki bolaning faoliyatini tashkil etuvchi, qo‘llab-quvvatlovchi, yo‘naltiruvchi va rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi fasilitator hamdir. Bu yondashuv bolaning mustaqilligi, tashabbuskorligi va ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Tarbiyachining fasilitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirish.**

Zamonaviy maktabgacha ta’lim jarayonida tarbiyachining roli faqatgina bolalarga bilim va ko‘nikmalar berish bilan cheklanib qolmaydi. Tarbiyachi bolaning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi fasilitator sifatida ham faoliyat yuritishi zarur.

Fasilitatortushunchasi “Fasilitatsiya” tushunchasi jarayonni yengillashtirish, ishtirokchilarning faolligini oshirish ma’nosini anglatadi. Pedagog-fasilitator bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etadi.

Tarbiyachining asosiy fasilitatorlik ko‘nikmalari:

**Samarali muloqot ko‘nikmasi**.Tarbiyachi bola bilan ochiq, samimiy va hurmatga asoslangan muloqot o‘rnatishi kerak. Bolani tinglash, uning fikrini bo‘lmaslik va savollariga e’tibor bilan munosabatda bo‘lish muhim.

**Faol tinglash ko‘nikmasi.** Faol tinglash bolaning fikri, his-tuyg‘ulari va ehtiyojlarini tushunishga yordam beradi. Tarbiyachi bolaning so‘zlarini diqqat bilan eshitib, aniqlashtiruvchi savollar berishi lozim.

**Savol berish mahorati.** Fasilitator tayyor javob bermaydi, balki bolani o‘ylashga undaydi. Masalan:- «Seningcha, bu nima uchun shunday bo‘ldi?»

“Buni yana qanday usulda bajarish mumkin?”

“Agar boshqacha qilsak, nima bo‘ladi?”

**Rag‘batlantirish ko‘nikmasi.** Bolaning kichik yutug‘ini ham e’tirof etish uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. “Sen buni mustaqil bajarding”, “Qiziq fikr aytding”, “Yana bir bor o‘ylab ko‘r-chi” kabi iboralardan foydalanish mumkin.

**Nizolarni boshqarish ko‘nikmasi** Bolalar o‘rtasida kelishmovchilik yuzaga kelganda tarbiyachi kim haq yoki ohaqligini darhol belgilamasdan, vaziyatni tushunishga va bolalarni o‘zaro kelishuvga olib kelishga harakat qiladi.

Guruhni boshqarish ko‘nikmasi.

Tarbiyachi har bir bolaning faol ishtirokini ta’minlashi, tortishuvchan yoki juda faol bolalar bilan bir qatorda kamgap bolalarni ham muloqotga jalb qilishi zarur.

**Fasilitator-tarbiyachining faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi;**

- bolaning shaxsini hurmat qilish;
- individual yondashuv;
- teng muloqot;
- erkin fikr bildirish imkoniyati;
- hamkorlikda o‘rganish;
- ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- mustaqillikni rag‘batlantirish;

- ijobiy psixologik muhit yaratish.

**Fasilitatorlikko‘nikmalarini shakllantirish usullari**

Tarbiyachilarda fasilitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, rolli o‘yinlar va pedagogik vaziyatlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Masalan, “Mening fikrim”, “Savol ber - javobni top”, “Muammoni birgalikda hal qilamiz”, “Rollarni almashtiramiz” kabi mashqlar tarbiyachining muloqot va yo‘naltirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, erkin o‘yin, syujetli-rolli o‘yin, didaktik o‘yin va ijodiy faoliyat jarayonida tarbiyachi bolaga tayyor ko‘rsatma berishdan ko‘ra, uni mustaqil harakat qilishga undashi maqsadga muvofiq.

An’anaviy yondashuvda tarbiyachi ko‘proq bilim beruvchi va nazorat qiluvchi vazifani bajarsa, fasilitatorlik yondashuvida u yo‘naltiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va hamkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, bola topshiriqni bajara olmayotgan bo‘lsa, tarbiyachi «Sen noto‘g‘ri qilding» demasdan: “Kel, birgalikda o‘ylab ko‘ramiz. Avvalo nimadan boshlashimiz mumkin?” deb bolani mustaqil yechim topishga undaydi.

**Xulosa** Tarbiyachining fasilitatorlik ko‘nikmalari maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Fasilitator-tarbiyachi bolaga tayyor bilimni berish bilan cheklanmaydi, balki uning mustaqil fikrlashi, izlanishi, muloqot qilishi, ijodkorligi va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuning uchun zamonaviy tarbiyachi o‘zining kasbiy mahorati bilan bir qatorda samarali muloqot, faol tinglash, savol berish, rag‘batlantirish, nizolarni boshqarish va guruh bilan ishlash kabi fasilitatorlik ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirib borishi lozim.

**FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637-son qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03/25/1091/0969-son; 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son; 23.06.2026-y., 03/26/1155/0616-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” O‘RQ-595-son qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son; 07.02.2026-y., 03/26/1117/0116-son; 23.06.2026-y., 03/26/1155/0616-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152-sonli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06/25/73/0389-son; 07.02.2026-y., 06/26/19/0118-son; 20.07.2026-y., 06/26/138/0762-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-19-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2026-y., 06/26/19/0118-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 06/24/152/0773-son; 01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son; 22.11.2025-y., 06/25/223/1076-son

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 26.01.2024-y., 09/24/46/0070-son; 15.07.2025-y., 09/25/439/0619-son

7. O‘zbekiston Rrespublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 362-sonli buyrug‘i.

8. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabayeva D.A., Gulyamova N.B., Miftayeva N.A. “O‘yin orqali ta’lim berish”. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2020.

9. Grosheva I.V., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkiloining “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi (uchinchi nashr) Toshkent 2026-yil.